

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYAT SAMARADORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARNI BAHOLASH METODLARI

Mavrulov Ravshan Nematjonovich

Namangan davlat texnika universiteti PhD dotsenti

Email: Mavrulov1989@gmail.com

ORCID: 0009-0004-4940-5313

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18983088>

Annotatsiya. Mazkur maqolada kichik biznes subyektlari bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy tizimning eng moslashuvchan va faol bo‘g‘ini sifatida namoyon bo‘ladi. Ular bandlikni oshirish, yangi daromad manbalarini shakllantirish va hududiy rivojlanishni qo‘llab - quvvatlashda muhim o‘rin egallaydi. Shu bois ularning faoliyatini ilmiy asosda baholash iqtisodiy siyosat va boshqaruv qarorlarida alohida ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Baholash konsepsiyasi, baholash mezonlar, kichik biznes, Moliyaviy natijalar, boshqaruv sifati, innovatsion faollik, raqobatbardoshlik, institutsional muhit.

Abstract. In this article, small businesses are shown as the most flexible and active link in the economic system in a market economy. They play an important role in increasing employment, creating new sources of income, and supporting regional development. Therefore, a scientific assessment of their activities is of particular importance in economic policy and management decisions.

Keywords: Assessment concept, assessment criteria, small business, Financial results, management quality, innovative activity, competitiveness, institutional environment.

Аннотация. В данной статье малый бизнес представлен как наиболее гибкое и активное звено экономической системы в условиях рыночной экономики. Он играет важную роль в увеличении занятости, создании новых источников дохода и поддержке регионального развития. Поэтому научная оценка его деятельности имеет особое значение в экономической политике и управленческих решениях.

Ключевые слова: Концепция оценки, критерии оценки, малый бизнес, финансовые результаты, качество управления, инновационная деятельность, конкурентоспособность, институциональная среда.

Kirish. Kichik biznes subyektlari faoliyat samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni baholash va samaradorlikka ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularni baholashning ilmiy-amaliy zarurati asoslab berilishi lozim. Bugungi kunda kichik biznes subyektlarida yakuniy natija (daromad, foyda, ishlab chiqarish hajmi) ko‘pincha birgina sabab bilan emas, balki ichki va tashqi omillarning o‘zaro uyg‘unlashgan ta’siri bilan shakllanadi. Shu bois samaradorlikni oshirish bo‘yicha to‘g‘ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun omillar tizimini aniqlash, ularning ta’sir kuchini o‘lchash hamda ustuvor omillarni ajratib ko‘rsatish muhim hisoblanadi. Kichik biznes subyektlari uchun samaradorlik tushunchasi faqat moliyaviy natija bilan cheklanmaydi. U resurslardan foydalanish darajasi, ishlab chiqarish jarayonlarining tashkil etilishi, bozor sharoitlariga moslashuvchanlik, innovatsion faollik, mehnat unumdorligi, mahsulot (yoki xizmat) sifati, xarajatlarni boshqarish hamda ijtimoiy natijalar kabi ko‘plab yo‘nalishlarni qamrab oladi. Omillarni baholash metodlari tanlanayotganda ularning ko‘p mezonli xususiyati, ma’lumotlarning mavjudligi va korxonada miqyosiga mosligi alohida e’tiborga olinadi. Kichik biznesda hisob-kitob va statistik ma’lumotlar bazasi yirik korxonalarinikiga nisbatan torroq bo‘lishi mumkinligi sababli metodlarni tanlashda “soddalik–aniqlik–amaliy qo‘llanish” muvozanatini ta’minlash talab etiladi.

Samaradorlikka ta’sir etuvchi omillarni metodik tayanch nuqtasidir. Umumiy yondashuvga ko‘ra, omillarni ikki katta guruhga ajratish maqsadga muvofiq: ichki (korxonada ichida shakllanadigan) va tashqi (korxonada nazoratidan tashqarida bo‘lgan) omillar. Ichki omillarga boshqaruv sifati, mehnat resurslari salohiyati, ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish, texnologik daraja, xarajatlar tarkibi, moliyaviy intizom, marketing faoliyati, raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi kabi jihatlar kiradi. Tashqi omillar esa bozor kon’yunkturasi, raqobat darajasi, logistika va infratuzilma holati, kredit resurslariga kirish imkoniyati, soliq va tartibga solish muhiti, hududiy ixtisoslashuv, xomashyo ta’minoti hamda iste’molchilar talabidagi o‘zgarishlar bilan ifodalanadi. Ushbu omillar ko‘pincha bir-birini kuchaytiruvchi yoki cheklovchi tarzda namoyon bo‘ladi, natijada ularni alohida emas, balki tizimli

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

tarzda baholash zarurati yuzaga keladi. Omillarni baholashning metodik masalalariga ham e’tibor qaratiladi. Birinchi navbatda, omilning ta’siri qanday o’lchanishi (absolyut yoki nisbiy), baholash qaysi vaqt kesimida amalga oshirilishi (oylik, choraklik, yillik), ma’lumotlar manbai (hisobot, so‘rovnoma, ekspert bahosi, statistika) va natija ko‘rsatkichi (foyda, rentabellik, ishlab chiqarish hajmi, mehnat unumdorligi va boshqalar) aniqlashtiriladi. Ikkinchidan, omillarning miqdoriy va sifat jihatlarini mavjudligi sababli baholash metodlari ham turlicha bo‘lishi tabiiy: ayrim omillarni aniq raqamlar bilan ifodalash mumkin (masalan, xarajatlar, kredit foizi, ishlab chiqarish hajmi), ayrimlari esa ekspert bahosi, indekslash yoki reytinglash orqali baholanadi (masalan, boshqaruv sifati, innovatsion muhit, xizmat sifati).

Shuning uchun statistik usullar (korrelyatsiya-regressiya, indekslar, dinamik qatorlar, faktor tahlili), iqtisodiy-matematik usullar, ko‘p mezonli baholash (integral ko‘rsatkich, ballik baholash, reyting), shuningdek, ekspert va so‘rovnoma asosidagi metodlarning amaliy imkoniyatlari yoritilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Olimlarning fikricha, korxonalar samaradorligini baholash jarayoni faqat moliyaviy ko‘rsatkichlarga bog‘liq bo‘lmazligi kerak. Xususan, Inta Kotane va Irina Kuzmina-Merlino tadqiqotlarida ta’kidlanishicha, kichik biznes faoliyatini baholashda **moliyaviy bo‘lmagan indikatorlar ham kiritilgan kompleks ko‘rsatkichlar tizimi** zarur¹¹², chunki bu yondashuv korxonalar holatini yanada to‘liq aks ettiradi va qarorlar sifatini oshiradi. Bundan tashqari, Lussier va Pfeifer tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, tashkilot muvaffaqiyati ko‘pincha rentabellik, sotuvlar hajmi, mehnat unumdorligi kabi bir necha ko‘rsatkichlarning o‘zaro ta’siri orqali aniqlanadi¹¹³, shuning uchun samaradorlikni baholashda bu omillarni tizimli yondashuv bilan ko‘rib chiqish kerakligini deya takidlab o‘tilgan.

Kichik biznes subyektlari samaradorligi dunyo iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularning o‘rni sur‘ati va iqtisodiy ta’siri statistik ko‘rsatkichlar orqali aniq kuzatiladi. 2023-yilgi jahon statistik ma’lumotlarga ko‘ra, kichik va o‘rta korxonalar global ishchi o‘rinlarning **90% dan ortig‘ini** ta’minlab, dunyo yalpi ichki mahsulotining (YAIM) taxminan **40% ini** ishlab chiqaradi¹¹⁴. Shu bilan birga, ularning iqtisodiy samaradorligi bevosita moliyaviy va no-moliyaviy omillar bilan aniqlanadi.

Xalqaro tadqiqot natijalariga ko‘ra, kichik biznes subyektlarining moliyaviy samaradorligiga ta’sir qiluvchi eng muhim omillardan biri korxonalar likvidligi va rentabellikdir. Masalan, 2022-yilgi tadqiqotlarda aniqlanishicha, kichik korxonalarining o‘rtacha rentabellik darajasi 12-16% oralig‘ida bo‘lib, u yuqori likvidlik darajasiga ega bo‘lgan korxonalarda **20% dan oshayotgan** natija qayd etilgan¹¹⁵. Bu shuni anglatadiki, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish korxonalar samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Bugungi kunda, Namangan viloyatida 2020–2024 yillar davomida kichik biznes subyektlarining umumiy samaradorligi 2020 yilda viloyat bo‘yicha kichik biznes subyektlaridan olingan yalpi mahsulot hissasi mintaqa YAIMning taxminan 37,1% ini tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 40,0% gacha ortdi. Bu o‘rni asosan ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida yangi tadbirkorlik loyihalarining yo‘lga qo‘yilishi bilan bog‘liq edi. Moliyaviy samaradorlik indikatorlariga qaraydigan bo‘lsak, Namangan viloyatidagi kichik korxonalarining o‘rtacha rentabellik darajasi 2020-yilda 11,4%, 2021-yilda 12,3%, 2022-yilda 13,0%, 2023-yilda 14,1% va 2024-yilda 15,2% deb qayd etildi. Ushbu ko‘rsatkichlarning ortishi korxonalarining moliyaviy boshqaruv salohiyati va resurslardan samarali foydalanish darajasining oshganini ko‘rsatadi. Ijtimoiy omillarni ko‘zdan kechiradigan bo‘lsak, Namangan viloyatida kichik biznes subyektlari tomonidan yaratilgan yangi ishchi o‘rinlar soni 2020-yilda 37 800 nafar bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda bu son 45 600 nafarga yetdi. Bu o‘rni mehnat bozoridagi talab va kichik biznesning bandlikni qo‘llab-quvvatlashdagi rolini mustahkamladi.

Andijon viloyati kichik biznesning samaradorligini oshirish bo‘yicha faol yo‘l tutmoqda. 2020-yilda viloyat bo‘yicha kichik biznesning ishlab chiqarish hajmi YAIMga qo‘shgan hissasi **34,8 %** bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 38,7% gacha yetdi. Bu o‘rni asosan yangi ishlab chiqarish quvvatlari va ixtisoslashgan kichik korxonalar sonining ko‘payishi bilan izohlanadi. Moliyaviy ko‘rsatkichlar bo‘yicha Andijonda kichik biznes rentabelligi 2020-yilda **10,9%**, 2021-yilda **11,6%**, 2022-yilda **12,4%**, 2023-yilda **13,6%** va 2024-yilda **14,9%** sifatida qayd etildi. Bu tendentsiya moliyaviy boshqaruvni

¹¹² Kotane, I., & Kuzmina-Merlino, I. (2014). *Assessment of financial indicators for evaluation of business performance*. ResearchGate. https://www.researchgate.net/publication/268352828_Assessment_of_financial_indicators_for_evaluation_of_business_performance

¹¹³ Lussier, R. N., & Pfeifer, S. (2013). *Key Factors of Small Business Success: Literature Review*. ResearchGate. https://www.researchgate.net/publication/338641824_Key_Factors_of_Small_Business_Success_Literature_Review

¹¹⁴ World Bank, *Small and Medium Enterprises Finance*, World Bank Group Data, 2023 y

¹¹⁵ OECD, *SME and Entrepreneurship Outlook*, OECD Publishing, 2023. y

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

takomillashtirish va investitsion faoliyatni kengaytirish bilan bog‘liq. Andijon viloyatida tashqi bozor sharoitlari va raqobat muhitining ijobiy ta’siri sezildi. 2022-2024 yillarda kichik biznes subyektlarining savdo hajmi har yili o‘rtacha **9,5%** o‘sdi, bu milliy va mintaqaviy kompaniyalar bilan raqobatbardoshlikni mustahkamlashga yordam berdi.

Farg‘ona viloyatida kichik biznes subyektlari samaradorligini oshirish bo‘yicha 2020–2024 yillar oralig‘ida sezilarli natijalar kuzatildi. 2020-yilda viloyat kichik biznesining YAIMga ulushi **35,6%** bo‘lgani holda, 2024-yilda **39,2%** darajasiga ko‘tarildi. Bu ko‘rsatkich ishlab chiqarish, qurilish va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida faoliyati kengaygan korxonalar hissasini oshirdi. Moliyaviy ko‘rsatkichlar bo‘yicha Farg‘onada kichik biznes rentabelligi 2020-yilda **11,1%**, 2021-yilda **11,9%**, 2022-yilda **12,8%**, 2023-yilda **13,9%** va 2024-yilda **15,0%** ni tashkil etdi. Bu o‘shirish resurslardan samarali foydalanish va moliyaviy intizomning yaxshilanishini aks ettiradi. Innovatsion faoliyat Farg‘ona viloyatida ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. 2020-2022 yillarda kichik biznes subyektlarining taxminan 13-16% ni zamonaviy texnologiyalarni joriy etgan bo‘lsa, 2023–2024 yillarda bu ko‘rsatkich 18-22% gacha ortdi. Innovatsiyalar raqobatbardoshlikni oshirish va mahsulot sifati yaxshilanishiga olib keldi.

Farg‘ona vodiysi viloyatlari - Namangan, Andijon va Farg‘ona 2020-2024 yillar davomida kichik biznes samaradorligini oshirish yo‘lida ijobiy o‘shirish sur‘atlarini ko‘rsatdi. Moliyaviy rentabellik darajalari va ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha barcha viloyatlar o‘shirish tendentsiyasini saqlab qoldi, bu esa resurslardan samarali foydalanish va boshqaruv salohiyatining oshishidan dalolat beradi. Ijtimoiy omillar, xususan yangi ishchi o‘rinlar yaratilishi, hududiy mehnat bozorining barqarorligini ta‘minlashga xizmat qildi. Innovatsion faoliyatning kengayishi esa raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va bozorni kengaytirish imkoniyatlarini yaxshiladi.

Umuman olganda, 2020-2024 yillar statistikasi Farg‘ona vodiysi viloyatlari kichik biznes subyektlarida samaradorlikni oshirish bo‘yicha uzluksiz jarayon borayotganini ko‘rsatadi hamda kelgusida strategik boshqaruv va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish zaruratini asoslab beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2023-yil 14 sentabrdagi PQ-306-sonli “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”**¹¹⁶ qarori kichik biznes subyektlari faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan kompleks yondashuvni belgilaydi. Qarorda davlat tomonidan kichik biznes sohasini moliyaviy, institutsional va boshqaruv salohiyatini mustahkamlash bo‘yicha aniq mexanizmlar joriy etildi, bu esa baholash metodologiyasining amaliy asosini yaratadi.

Bundan tashqari 2025-yil 19 martda qabul qilingan **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-50-sonli Farmoni “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**¹¹⁷ mamlakatda kichik va o‘rta biznes (KOB) subyektlarining samaradorligini mustahkamlash, ularni jadal rivojlantirish va iqtisodiyotdagi ulushini oshirishni maqsad qilgan. Farmonda 2025-yilda kichik va o‘rta biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, eksportdagi hissasi hamda bandlikdagi roli bo‘yicha aniq **maqsadli ko‘rsatkichlar belgilangan**, bu esa samaradorlikni baholash metodlariga asos bo‘ladi.

Quyidagilar **farmonning asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari** sifatida belgilangan: kichik va o‘rta biznesning **YAIMdagi ulushini 55 %ga yetkazish**, sanoatdagi ulushini 34 %gacha oshirish, eksportdagi hissasini 34 %ga yetkazish hamda aholi bandligini ta‘minlashda **75 %ga erishish**. Shuningdek, kamida **600 ta subyektni “champion” tadbirkor** sifatida rivojlantirish, va **100 nafardan ortiq xodim ishlaydigan korxonalar sonini 4 000 gacha** yetkazish maqsad qilinadi.

Bu farmon orqali davlat kichik biznes samaradorligini faqatgina moliyaviy ko‘rsatkichlar (masalan, rentabellik, foyda yoki likvidlik) bilan emas, balki **sohani rejalashtirish, raqobatbardoshlikni oshirish, eksport salohiyatini kuchaytirish va bandlikni ta‘minlash kabi kompleks omillar orqali baholash zarurligini** ochiq e‘lon qiladi. Shu nuqtai nazardan samaradorlikni baholashda nafaqat iqtisodiy indikatorlar, balki biznesning iqtisodiyotdagi integratsiyasi, ishlayotgan aholining ulushi va energiya samaradorligini ham hisobga oluvchi metodlar qo‘llanishi talab etiladi. Kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish strategiyasining **maqsadli ko‘rsatkichlari 2025-2030** yillar bo‘yicha ham belgilangan bo‘lib, unda kichik biznes subyektlarining ishlab chiqarish, eksport va ijtimoiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar jamlangan. Bu holat samaradorlik baholash mexanizmlarini yanada yuqori darajada tizimlashtirishni talab qiladi: ya‘ni

¹¹⁶ <https://lex.uz/uz/docs/-6609110>

¹¹⁷ <https://lex.uz/docs/-7444738>

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

o‘zaro bog‘langan ko‘rsatkichlar tizimi orqali moliyaviy, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni baholashni ta‘minlash kerakligi takidlangan.


Bugungi kunda yengil sanoat ishlab chiqarishni davlat tomonidan qo‘llab quvvatlash chora-tadbirlari amalga oshirish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-sentyabrdagi “Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4453-son Qarori qabul qilingan. Mazkur qarorga binoan 2020-yil 1-yanvardan:

-yalpi tushumning umumiy hajmida tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlarining eksporti 60 foizdan kam bo‘lmagan eksport ulushiga ega bo‘lgan korxonalar 2023-yil 1-yanvargacha mol-mulk solig‘ini to‘lashdan ozod etish;

-to‘qimachilik, tikuv-trikotaj, charm-poyabzal, va mo‘ynachilik korxonalarining foyda solig‘i bo‘yicha soliqa tortiladigan bazasi yetti yil davomida teng ulushlarda zamonaviy tozalash va kanalizatsiya inshootlarini qurish bo‘yicha xarajatlar summasiga kamaytirilishi belgilangan¹¹⁸.

Kichik biznes subyektlari faoliyat samaradorligini baholashda yakuniy natijani faqat moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan izohlash yetarli emas. Chunki samaradorlik ko‘p omilli (multifaktorial) xarakterga ega bo‘lib, u korxonada ichki resurslari va boshqaruv jarayonlari bilan bir qatorda, bozor sharoiti hamda tashqi institutsional muhit ta‘sirida shakllanadi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, bir xil hajm va imkoniyatdagi korxonalar ham turli hududlarda yoki turli bozor sharoitida turlicha natija ko‘rsatishi mumkin.

Shu sababli omillarni baholash metodlarini tanlashdan avval, ularni tizimli ravishda guruhlash va o‘zaro bog‘liqligini konseptual model asosida aks ettirish zarur. Mazkur rasmda kichik biznes samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillar 6 ta yirik guruhga ajratilib, markaziy “kichik biznes omillari” tushunchasi atrofida integratsion yondashuvda ifodalangan (1-rasm).



1-rasm. Kichik biznes subyektlari faoliyat samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillar tizimi¹¹⁹

Rasmdan ko‘rishimiz mumkinki, kichik biznes subyektlari faoliyat samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillarni moliyaviy, iqtisodiy, innovatsion, ijtimoiy, bozor va tashqi muhit guruhlari bo‘yicha tizimlashtirib beradi. Markazdagi “kichik biznes omillari” bloki shuni anglatadiki, samaradorlik bitta omil hisobiga emas, balki bir-biri bilan uzviy bog‘langan omillar majmui natijasida shakllanadi.

¹¹⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-sentyabrdagi “Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4453-son Qarori. (manba: <https://lex.uz/docs/4516526>)

¹¹⁹ Muallif ishlanmasi

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

1. **Moliyaviy omillar** korxonaning to‘lov qobiliyati, likvidligi, foyda va rentabellik darajasini belgilaydi. Bu guruh samaradorlikni baholashda eng tez o‘lchanadigan va amaliy qarorlar qabul qilishda asos bo‘ladigan ko‘rsatkichlar blokidir.

2. **Iqtisodiy omillar** resurslardan foydalanish samaradorligi (mehnat unumdorligi, tannarx, ishlab chiqarish hajmi) bilan bog‘liq bo‘lib, korxonaning ichki ishlab chiqarish imkoniyatlari va xarajatlar boshqaruvini ochib beradi.

3. **Innovatsion omillar** texnologik rivojlanish, raqamlashtirish darajasi, yangi mahsulot/texnologiya joriy etish salohiyati orqali raqobat ustunligini shakllantiradi. Innovatsion omillar yuqori bo‘lgan korxonalarda bozor talabi o‘zgarishiga moslashuv tezroq bo‘ladi.

4. **Ijtimoiy omillar** xodimlar sifati, bandlik, mehnat sharoiti va ish haqi kabi jihatlar orqali korxonaning mehnat resurslari barqarorligini ta‘minlaydi. Bu omillar uzoq muddatli samaradorlikka bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

5. **Bozor omillari** bozor ulushi, sotuv hajmi, talab tebranishi, raqobat shiddati hamda eksport imkoniyatlari bilan bog‘liq. Bozor omillari kuchli bo‘lgan sharoitda korxonada daromad va foydani barqaror oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

6. **Tashqi muhit omillari** (davlat qo‘llovi, infratuzilma, kredit resurslariga kirish, soliq va tartib-taomillar, logistika) kichik biznesning institutsional imkoniyatlarini belgilaydi.

Kichik biznes subyektlari faoliyat samaradorligini baholash amaliyotida ko‘pincha alohida ko‘rsatkichlar (foyda, rentabellik yoki ishlab chiqarish hajmi) bilan cheklanib qolish holatlari uchraydi. Bunday yondashuv korxonada samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillarning ko‘p qirrali tabiatini to‘liq ochib bera olmaydi. Chunki kichik biznesda samaradorlik natijasi moliyaviy holat bilan bir qatorda, resurslardan foydalanish darajasi, bozor sharoiti, boshqaruv sifati, innovatsion faollik, hamda tashqi muhitdagi institutsional omillar (davlat qo‘llovi, infratuzilma, kredit resurslariga kirish) bilan ham belgilanadi. Shu sababli samaradorlikka ta‘sir etuvchi omillarni baholash metodlarini asoslashda, baholash jarayonini **bosqichma-bosqich**, **tizimli** va **integratsiyalashgan** ko‘rinishda ifodalash muhimdir. Bunda baholash natijasi faqat “raqamli ko‘rsatkich” sifatida emas, balki amaliy boshqaruv qarorlarini qabul qilishga xizmat qiladigan yakuniy “tahliliy xulosa” sifatida talqin qilinadi. Mazkur yondashuvga tayangan holda kichik biznes subyektlari samaradorligini baholash bo‘yicha konsepsiyasi ishlab chiqildi (1-jadval)

1-jadval

Samaradorlikni kompleks baholash modeli¹²⁰

Baholash bosqichi	Amalga oshiriladigan ish	Natija
Malumot yigish	Moliyaviy, ijtimoiy, bozormalumotlari	Axborot bazasi
Omillarni aniqlash	Ichki va tashqi omillar	Omillar tizimi
Metod tanlash	Mos tahlil usullarini belgilash	Baholash mexanizmi
Hisoblash	Indeks va koeffitsiyentlar	Raqamli natijalar
Integratsiya	Yagona samaradorlik indeksi	Umumiy baho
Qaror qabul qilish	Rivojlanish strategiyasi	Samaradorlikni oshirish yo‘nalishlari

Jadvaldan shuni ko‘rishimiz mumkinki kichik biznes subyektlari faoliyat samaradorligini baholashning kompleks modeli keltirilgan. Model baholash jarayonini ma‘lumotlarni yig‘ishdan boshlab yakuniy boshqaruv qarorlarini qabul qilishgacha bo‘lgan izchil bosqichlarga ajratadi. Ushbu yondashuv samaradorlikni nafaqat alohida ko‘rsatkichlar, balki ularning integrallashgan natijasi asosida baholash imkonini beradi va kichik biznesni rivojlantirish bo‘yicha asosli strategik qarorlar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kichik biznes subyektlari faoliyat samaradorligini baholash jarayonida qo‘llaniladigan metodlar mazmuni, ularning amaliy ahamiyati hamda cheklanishlarini chuqur tahlil qilish muhim hisoblanadi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, baholash metodlarining har biri muayyan sharoitda samarali bo‘lishi bilan birga, ayrim holatlarda yetarli natija bermasligi ham mumkin. Shu sababli baholash metodlarini tanlashda ularning afzalliklari va kamchiliklarini kompleks tahlil qilish zarurati yuzaga keladi. Mazkur yondashuv ko‘ra kichik biznes subyektlari faoliyatini baholashda subyektiv qarorlar qabul qilish xavfini kamaytirish, baholash natijalarining aniqligi va ishonchligini oshirish, shuningdek, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda eng maqbul metodlarni tanlash imkonini beradi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes subyektlari uchun mos, sodda va bir vaqtning o‘zida kompleks baholash usullarini aniqlash dolzarb masala hisoblanadi.

¹²⁰ Muallif ishlanmasi

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

Shu nuqtai nazardan, jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki kichik biznes subyektlari faoliyat samaradorligini baholashda keng qo‘llaniladigan asosiy metodlarning afzalliklari va kamchiliklari tizimli ravishda umumlashtirildi (2-jadval).

2-jadval

Kichik biznes subyektlari faoliyati samaradorligini baholash metodlari¹²¹

Afzalliklari	Kamchiliklari
Hisoblash sodda; tezkor baholash imkonini beradi	Faqat moliyaviy ko‘rsatkichlarga tayanadi
Dinamik o‘zgarishlarni aniqlaydi; aniqligi yuqori	Katta hajmdagi ma’lumot talab etadi
O‘shirish sur‘atlarini ko‘rsatadi; solishtirish qulay	Inflyatsiya ta’siri to‘liq hisobga olinmaydi
Sifat ko‘rsatkichlarini baholaydi; moslashuvchan	Subyektivlik mavjud
Taqqoslash va guruhlash qulay	Mezonlarni tanlash murakkab
Ilg‘or tajribani aniqlash imkonini beradi	Ma’lumotlar ochiqligi cheklangan
Kompleks va tizimli baho beradi	Vazn koeffitsientlarini aniqlash murakkab
Tezkor, real vaqt tahlili mumkin	Texnologik infratuzilma talab etadi

Jadvaldan shuni ko‘rishimiz mumkinki, kichik biznes subyektlari faoliyat samaradorligini baholashda qo‘llaniladigan metodlarning har biri muayyan afzalliklarga ega bo‘lishi bilan birga, ularning amaliy qo‘llanishi ayrim cheklanishlar bilan ham tavsiflanadi. Jumladan, hisoblashning soddaligi va tezkorligi bilan ajralib turadigan baholash usullari boshqaruv qarorlarini qisqa muddatda qabul qilish imkonini bersada, ular asosan moliyaviy ko‘rsatkichlarga tayanishi sababli sifat jihatlarini to‘liq qamrab olmaydi. Shuningdek, dinamik o‘zgarishlarni aniqlashga qaratilgan statistik va indeks usullari baholash natijalarining aniqligini oshiradi, biroq katta hajmdagi ma’lumotlar talab etilishi hamda inflyatsiya ta’sirining to‘liq hisobga olinmasligi ularning asosiy kamchiliklari sifatida namoyon bo‘ladi. Ekspert va reyting usullari esa sifat ko‘rsatkichlarini baholash imkonini bersada, subyektivlik omili yuqori bo‘lib qolmoqda.

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, benchmarking hamda integral baholash metodlari kichik biznes subyektlari faoliyatini kompleks va tizimli yondashuv asosida tahlil qilish imkonini beradi. Biroq ushbu metodlarni qo‘llashda vazn koeffitsientlarini aniqlashning murakkabligi va axborotlar ochiqligining cheklanganligi ma’lum darajada qiyinchiliklar tug‘diradi. Raqamli baholash usullari esa tezkor va real vaqt rejimida tahlil o‘tkazish imkonini bergan holda, zamonaviy texnologik infratuzilmani talab etadi.


Umuman olganda, tahlillar kichik biznes subyektlari faoliyat samaradorligini baholashda bitta metod bilan cheklanib qolmasdan, balki bir nechta baholash usullarini o‘zaro uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, an’anaviy baholash metodlarini integral va raqamli yondashuvlar bilan kombinatsiyalash kichik biznes subyektlari faoliyatini yanada aniq va ishonchli baholash imkonini beradi.

Kichik biznes subyektlarining ishlab chiqarish korxonalarini barqaror faoliyat yuritishi va bozor sharoitlarida raqobatbardoshligini ta’minlash ko‘p jihatdan ularning tashqi va ichki omillarga nisbatan chidamlilik darajasiga bog‘liq. Chidamlilik tushunchasi korxonaning moliyaviy holati, ishlab chiqarish quvvati, resurslar bilan ta’minlanganligi hamda mehnat resurslari salohiyatining uyg‘un rivojlanishini aks ettiradi. Shu sababli ishlab chiqarish korxonalarida chidamlilik darajasini aniqlashda alohida ko‘rsatkichlar emas, balki ularni yagona tizimga birlashtirgan kompleks va integral yondashuv zarur hisoblanadi. Moliyaviy ko‘rsatkichlarga asoslangan baholash korxonaning real holatini to‘liq aks ettirmaydi. Ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi, xomashyo ta’minotining barqarorligi, ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasi, shuningdek, ishchilar malakasi va kadrlar almashinuvi kabi omillar korxonaning umumiy chidamlilik darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois ishlab chiqarish korxonalarining chidamliligini baholashda moliyaviy, ishlab chiqarish va mehnat omillarini o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur yondashuv asosida korxonalar faoliyatining barqarorlik darajasini aniqlash, risk zonalarini belgilash hamda boshqaruv qarorlarini asoslash imkonini beruvchi chidamlilik darajasini aniqlashning identifikatsiya tizimi ishlab chiqildi. Ushbu tizim korxonalar bo‘yicha omillarni vaznli baholash, ularni integral ko‘rsatkichga keltirish hamda natijaga ko‘ra korxonani ma’lum chidamlilik toifasiga ajratish imkonini beradi. Quyidagi rasmda ishlab chiqarish korxonalarining chidamlilik darajasini aniqlash bo‘yicha taklif etilgan identifikatsiya tizimi aks ettirilgan (2-rasm).

¹²¹ Muallif ishlannasi

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral



2-rasm. Ishlab chiqarish korxonalarini chidamlilik darajasini aniqlashning identifikatsiya tizimi¹²².

Rasmdan korinadiki ishlab chiqarish korxonalarining chidamlilik darajasini aniqlash bo'yicha taklif etilgan identifikatsiya tizimi aks ettirilgan bo'lib, u korxonada faoliyatiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni tizimli va kompleks baholashga qaratilgan. Mazkur tizim ishlab chiqarish korxonalarining moliyaviy barqarorligi, ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligi hamda mehnat resurslari salohiyatini yagona metodik yondashuv asosida umumlashtirish imkonini beradi.

Identifikatsiya bu obyekt, hodisa yoki jarayonning **asosiy belgilarini aniqlash**, ularni **me'yorlar yoki mezonlar bilan taqqoslash** va natijada **aniq holatini belgilashni** anglatadi.

Tizimning birinchi bosqichida korxonada chidamliligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar aniqlanadi va uchta asosiy guruhga ajratiladi: moliyaviy omillar, ishlab chiqarish omillari va mehnat omillari.

Moliyaviy omillar korxonaning moliyaviy barqarorligi va likvidlik darajasini tavsiflab, uning qisqa va uzoq muddatli majburiyatlarni bajarish qobiliyatini ifodalaydi.

Ishlab chiqarish omillari ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasi hamda xomashyo va resurslar bilan ta'minlanganlik holatini aks ettiradi.

Mehnat omillari esa ishchilar malakasi, mehnat unumdorligi va kadrlar almashinuvi kabi ko'rsatkichlar orqali korxonaning ichki salohiyatini baholashga xizmat qiladi.

Har bir omil guruhi bo'yicha aniqlangan ko'rsatkichlar baholash ballari (**Bi**) orqali ifodalanadi hamda ularning korxonada chidamliligiga ta'sir darajasini hisobga olgan holda vazn koeffitsientlari (**Wi**) belgilanadi.

Mazkur yondashuv omillar ahamiyatini differensial baholashga imkon beradi va baholash natijalarining aniqligini oshiradi. Natijada barcha omillar bo'yicha vaznli baholar yig'indisi hisoblanib, chidamlilik indeksi (**Xa**) shakllantiriladi.

¹²² Muallif ishlanmasi

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

Hisoblangan chidamlilik indeksi asosida ishlab chiqarish korxonalarini past, o‘rtacha va yuqori chidamlilik darajalariga ajratiladi. Xususan, $Xa < 40$ bo‘lgan holatlarda korxonaning moliyaviy va ishlab chiqarish holati beqaror bo‘lib, tashqi va ichki risklarga sezuvchanligi yuqori ekanligi bilan tavsiflanadi. $40 \leq Xa < 70$ oralig‘idagi qiymatlar korxonaning faoliyati nisbatan barqaror ekanini, biroq ayrim zaif jihatlarni bartaraf etish zarurligini ko‘rsatadi. $Xa \geq 70$ bo‘lgan holatlarda esa korxonalar yuqori chidamlilik darajasiga ega bo‘lib, tashqi zarbalarga moslashuvchan va barqaror faoliyat yuritish qobiliyatiga ega deb baholanadi.

Identifikatsiya tizimining yakuniy bosqichida olingan natijalardan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalaniladi. Jumladan, past chidamlilik darajasiga ega korxonalar uchun inqirozga qarshi choralarini ishlab chiqish, moliyaviy barqarorlikni tiklash hamda resurslardan foydalanishni qayta ko‘rib chiqish tavsiya etiladi. O‘rtacha chidamlilik darajasidagi korxonalar uchun samaradorlikni oshirish, risklarni boshqarish va ichki jarayonlarni optimallashtirish muhim hisoblanadi. Yuqori chidamlilik darajasiga ega korxonalar uchun esa strategik rivojlanish, innovatsion faoliyatni kengaytirish va investitsiya loyihalarini amalga oshirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanadi. Umuman olganda, identifikatsiya tizimi ishlab chiqarish korxonalarining chidamlilik darajasini aniqlashda integral yondashuvni ta‘minlaydi hamda baholash natijalarini boshqaruv qarorlari bilan uzviy bog‘lash imkonini beradi. Ushbu yondashuv kichik biznes va ishlab chiqarish korxonalarini faoliyatini baholash metodologiyasini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda kichik biznes subyektlari, xususan ishlab chiqarish korxonalarining faoliyat samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillarni baholash metodlari tizimli ravishda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kichik biznes subyektlari faoliyatining samaradorligi faqat moliyaviy natijalar bilan cheklanib qolmasdan, ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligi, resurslardan foydalanish darajasi hamda mehnat resurslari salohiyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Olib borilgan tahlillar asosida samaradorlikni baholashda qo‘llaniladigan an‘anaviy metodlarning (koeffitsientlar, statistik, indeks va ekspert baholash usullari) ma‘lum ustunliklarga ega bo‘lishi bilan birga, ularning ayrim cheklanishlari ham mavjudligi aniqlandi. Xususan, mazkur metodlar aksariyat hollarda alohida ko‘rsatkichlarga tayanib, korxonalar faoliyatining kompleks holatini to‘liq aks ettira olmaydi. Shu sababli kichik biznes subyektlari faoliyatini baholashda bir nechta omillarni yagona tizimga birlashtirgan integral yondashuv zarurligi asoslab berildi. Ayniqsa, innovatsion faollik, bozor sharoiti va davlat qo‘llab-quvvatlash omillarining baholash jarayoniga kiritilishi kichik biznes faoliyatining real holatini aks ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Kotane, I., & Kuzmina-Merlino, I. (2014). *Assessment of financial indicators for evaluation of business performance*. ResearchGate. https://www.researchgate.net/publication/268352828_Assessment_of_financial_indicators_for_evaluation_of_business_performance
2. Lussier, R. N., & Pfeifer, S. (2013). *Key Factors of Small Business Success: Literature Review*. ResearchGate. https://www.researchgate.net/publication/338641824_Key_Factors_of_Small_Business_Success_Literature_Review
3. World Bank, *Small and Medium Enterprises Finance*, World Bank Group Data, 2023 y
4. OECD, *SME and Entrepreneurship Outlook*, OECD Publishing, 2023. Y
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-sentyabrdagi “Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4453-son Qarori. (manba: <https://lex.uz/docs/4516526>)
6. <https://lex.uz/uz/docs/-6609110>
7. <https://lex.uz/docs/-7444738>